



PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMU JURNAL

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 7, Issue 2



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities





«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

“PEDAGOG”

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-FEVRAL, 2024-YIL

7-TOM 2-SON

O‘ZBEKISTON

2024

83.	Mamatkulova Bakhtijon Ravshanovna <i>TURLI TIZIMLI TILLARDA ONOMASTIK LEKSIKANING XUSUSIYATLARI</i>	459
84.	Kadirova X.A. <i>JADIDCHILIK NOMOYONDASI SHOKIR SULAYMONNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH</i>	464
85.	Kadirova X.A. <i>JADIDCHILIK NOMOYONDASI ISHAQON IBRATNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH</i>	473
86.	Raxmanova M. Q. Nishonov D. R. Mardonov J. Sh. Begmatov N. J. <i>OILADA SOG'LOM IJTIMOIIY PSIXOLOGIK IQLIMNI YARATISHDA BOLAGA TA'SIR ETUVCHI ENG MUHIM OMILLARNING O'ZIGA XOSLIGI</i>	484
87.	Dilrabo Khasanovna Saydaxmetova <i>METHODS OF INDEPENDENT WORK ON THE FORMATION OF STUDENTS' COGNITIVE COMPETENCE THROUGH LITERARY AND THEORETICAL CONCEPTS</i>	489
88.	Муратов Баходир <i>МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРШИХ КЛАССАХ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ.</i>	495
89.	Omon Suvanov <i>FARZAND TARBIYASIDA OILAVIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI</i>	501
90.	Xakimova Diyoraxon Maxammadjon qizi <i>VOLEYBOL BO'YICHA O'QITUVCHI – MUTAHASSIS MODEL</i>	505
91.	Jo'rayeva Moxinur Najmiddin qizi <i>YOSHLIK VA KEKSALIKNING TURLI JAMIYATDA TASVIRLANISHI</i>	510
92.	Rayimqulova Muxlisa <i>ECONOMIC EFFICIENCY OF THESE CHEAP FUEL RESOURCES IN THE PRODUCTION OF ELECTRICITY AND THERMAL ENERGY</i>	515
93.	Ya.A. Nurumbekova, Saidova Sevara Istam qizi <i>O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH.AQLIY TARBIYA</i>	518
94.	Ya.A. Nurumbekova, Yaxshilikova Sevinch Faxriddin qizi <i>BUGUNGI KUNDA INKLYUZIV TA'LIMNING DOLZARBLIGI</i>	521
95.	Раупова М. Х, Урманов Шингис Майханович <i>ИЗМЕНЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ</i>	524
96.	Raupova M. H., Xasanova M. F., Qurbonqulova S. B. <i>PYTHON DASTURLASH TILINING SYMPY VA SCIPY KUTUBXONALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA INTEGRALGA DOIR MASALALARNI HAL QILISH</i>	532
97.	Mavlonova G.D. <i>TAKRORIY EKAN SIFATIDA EKILGAN SOYANING GENETIK KOLLEKSIYASI NAMUNALARINING MORFOLOGIK BELGILARI</i>	538
98.	O.U.Nurova <i>KRAXMALNI MODIFIKATSIYALASHNING MEXANO-KIMYOVIY TEXNOLOGIYASI</i>	547
99.	Qayumova Hukar Sayfiddinovna <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH XUSUSIYATLARI</i>	554
100.	Mohinur Azimqulova, Xayrulla Hamidov <i>INSON KAMOLOTI VA XALQPARVARLIK G'OYALARI OGHIY NIGOHIDA</i>	561
101.	Egamberdiyeva D.O., Mahkamova M.U. <i>INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULBLARNI ISHLAB CHIQUISH VA ULARNI DARS JARAYONIGA TADBIQ ETISH</i>	565
102.	Umida Fayzullaeva Dildora Toshpulatova <i>NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH SPEAKING SKILLS FOR PUPILS</i>	577
103.	Sayyara Rustamovna Abdalova <i>ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA'LIM JARAYONINI NAZORAT QILISH VA KUZATISH METODIDAN FOYDALANISH</i>	581
104.	Ravshan Mamatqulov, Shaxloxon Abdumalikova, Muharram Sherqobilova <i>JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINI TAYORLASHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBASIDAN FOYDALANISH</i>	588
105.	Ишматова О.С, Камбылова З.Н, Абдурахмонова Р.Х. <i>МЕХАНИЗМ ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ПОТОЛГНЕЙ ЗАИКАНИЯ ПРИ СУДОРОЖНЫХ СИТУАЦИЯХ ЧТОБЫ УЛУЧШИТЬ РЕЧЬ</i>	594
106.	Kamola Abdullayevna Shokarimova <i>PECULIARITIES OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE TO STUDENTS IN SCHOOLS WITH A NON-RUSSIAN LANGUAGE OF TEACHING IN GRADES</i>	603

**JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINI TAYORLASHDA ILG'OR XORIJ
TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH**

Ravshan Mamatqulov

*Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy tarbiya va sport kafedrası katta o'qituvchisi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

Shaxloxon Abdumalikova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muharram Sherqobilova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya talabalari guruhi uchun o'qituvchilar tayyorlashda klaster texnologiyalaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Klaster-modul usulini turli jismoniy tayyorgarligi bo'lgan talabalar guruhlarida qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi. **Annotatsiya;** Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya talabalari guruhi uchun o'qituvchilar tayyorlashda klaster texnologiyalaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Klaster-modul usulini turli jismoniy tayyorgarligi bo'lgan talabalar guruhlarida qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi.

Tayanch iboralar: jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya, klaster tahlili, klaster, klaster-modul usuli, turli darajalar, jismoniy madaniyat, jismoniy holat, selektsiya, tarbiya jarayoni.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В
ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ.**

Равшан Маматкулов

*старший преподаватель кафедры физической культуры и спорта факультета
физической культуры*

Студенты; Шахлохон Абдумаликова

Мухаррам Шерқобилова

Аннотация; В данной статье рассматриваются вопросы использования кластерных технологий в подготовке учителей группы студентов физической культуры в высших учебных заведениях. Рассмотрены вопросы использования кластерно-модульного метода в группах студентов с разной физической подготовкой.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическая подготовка, кластерный анализ, кластер, кластерно-модульный метод, разные уровни, физическая культура, физическое состояние, отбор, образовательный процесс.

USE OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN TRAINING PHYSICAL CULTURE TEACHERS.

Annotation; *In this article, the issues of using cluster technologies in the training of children's physical culture teachers in higher educational institutions are considered. The issues of using the cluster-module method in groups of students with different physical fitness are considered.*

Key words: *physical education, physical training, cluster analysis, cluster, cluster-module method, different levels, physical culture, physical condition, selection, educational process.*

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

Mamlakatimizning oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv-uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va Internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot-resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; mazkur yo'nalishlarda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliy ta'lim muassasalari, xususan, pedagog kadrlarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur.

Ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob

bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda. Chunki ta'lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi kerak.

Biroq jamiyat rivojlanishi va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi. Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integrasiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – innovasion pedagogika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Ta'lim tizimida innovasion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi "Rim klubi" ma'ruzasida innovasion ta'limni an'anaviy, ya'ni "normativ" ta'limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta'lim "takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan" bo'lsa, innovasion ta'lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Innovasion faoliyat mazmuni va uning maqsadi. Ta'lim sifatini ta'minlash-bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi.

Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan.

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovasion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovasion ta'lim va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni

o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tekor o'sish) ta'lim jarayoniga nisbatan innovasion yondashuvni talab etadi. Globallashuv jarayonlarida ta'limga innovasion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati. Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovasion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovasion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovasiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovasion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

“Gimnastika nazariyasi va uslubi” fani “Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish metodikasi” modulini interfaol o'qitish-bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli ekanligi. Guruhda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish yo'llari.

Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarning amaliy yo'nalishi sifatida bugungi kunda pedagogikada o'qitishning bir necha metodlari farqlanadi:

1. Passiv – ta'lim oluvchi o'qitishning “ob'ekti” sifatida namoyon bo'ladi (tinglaydi va ko'radi);

2. Aktiv – ta'lim oluvchi o'qitish jarayonining “sub'ekti” sifatida namoyon bo'ladi(mustaqil ish, ijodiy topshiriqlar);

3. Interfaol – pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi. Interfaol so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» - o'zaro va «act» - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga “talaba–o'qituvchi” va “talaba-talaba”ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

O'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi.

Interfaol o'qitish talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi konsepsiyalari fundamental asos sifatida xizmat qiladi:

➤ o'qituvchining jadal faoliyati – o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;

➤ o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti – talaba hisoblanadi;

➤ muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

➤ o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan talabada fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rin tutadi;

➤ o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni talabadan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarida zamon bilan hamnafas ta'lim tizimini yaratish, albatta ilg'or jahon texnologiyalaridan samarali foydalanishni taqozo qiladi. Bunday tizimni yaratish uchun ta'lim muassasasini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda dunyo axborot tizimlari bilan bog'lash va ularning uzluksizligini ta'minlash maqsadida ta'lim muassasasida lokal kompyuter tarmog'i yaratilib, ular xalqaro internet tarmog'iga doimiy ravishda ulanishi lozim.

Barcha jarayonlar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda mamlakatimiz ta'lim tizimida ham boshqa sohalaridagidek axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika ta'minoti takomillashtirilmoqda, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari bilan ta'minlanmoqda.

Xulosa

Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashda masofaviy ta'lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or chet el tajribalari va modul tizimiga o'tish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa shundan iboratki, ta'lim sifatini ta'minlash – bilim oluvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ibragimov, D. A. Vospitanie molodeji - odna iz aktualnykh problem / D. A. Ibragimov. - Tekst: neposredstvennyy // Obrazovanie i vospitanie. - 2018. - № 3.1 (18.1). - S. 16-17. - URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/94/2655/> (kontaktnaya informatsiya: 23.10.2021).
2. Xudoyberganov J.S. Oznakomlenie molodyoji s vospitatelnym znacheniem kurasha. Internatinal Scientific Conference 122-126 betlar Bolgariya 2020 yil
3. Sultonov A.I. Xudoyberganov J.S Physical qualities and their essence. novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal 131-138-betlar INDIA 2021
4. Mamatkulov R.S. Nauchno-teoreticheskie osnovy razvitiya fizicheskoy kultury studentov vysshix uchebnykh zavedeniy klasterным методом “XALQ TA’LIMI” ilmiy metodik junali 2021y 5-son
5. Mamatkulov R.S. Osobennosti formirovaniya gotovnosti budущix pedagogov k innovatsionnoy deyatel'nosti sredstvami informatsionnykh texnologiy. The journal of academic research in educational sciences (ARES) volume 1, issue 3 november 2020 www.ares.uz